



---

## SABR TAGI SARIQ OLTIN

---

*Raxmatova Gavhar*

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani*

*2-son kasb-hunar maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Chingiz Aytmatovning ijodiga bag'ishlangan “Sabr tagi sariq oltin” maqolasida yozuvchining “Sarvqomat dilbarim” asari yetarlicha tahlil qilindi. Bu asarda Ilyosning oilasiga xiyonati, ishiga mas'uliyatli bo'lolmagani va oila deb atalgan muqaddas tushunchaning bir lahzada qo'ldan boy berishi hamda hayotiy saboqlari tasvirlanadi.

**Kalit so'zlar:** Ilyos, Asal, Boytemir, Xadicha, Samandar.

Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning asarlari hayotiyiligi, real voqealarga asoslanganligi bilan jahon adabiyoti durdonalari qatorida yetakchi o'rinlarni egallagan. Yozuvchining “Sarvqomat dilbarim” asari sof va tushunarlilik bilan kitobxonlar qalbiga kirib borgan. Adib asarlarida hayotdan go'zallik izlaydi. Inson hayotidagi ayrim qusurlarni kamchilik deb emas, aksincha, omadsizlik deya ta'riflashga urinadi. Chingiz Aytmatov o'z avtobiografiyasida aytganidek bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik- inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir. Bu jarayonlarni asarda o'g'li Samandar obrazi orqali yaqqol sezishimiz mumkin.

Oilada ikki insonning bir-biriga hurmati va ishonchi sekin-asta muxabbatga aylanadi. Mard, o'ziga har doim ishongan Ilyos texnika borasida hech qachon uyaltirmagan. Shunday bo'lishiga qaramasdan kasbiy faoliyatida texnika borasida yo'l qo'ygan xatosi Ilyosning, hatto, shaxsiy hayotini ham o'zgartirib yubordi. Chin dildan sevgan, sarvdek tik qomatli yori Asal va ular o'rtasidagi muxabbat mevasi, o'g'li Samandar bo'lishiga qaramasdan Ilyosning Xadicha bilan iliq munosabati hayotini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi.

Qizining qilmishlaridan norozi bo'lsa ham baribir volidasi chin dildan uyiga qabul qiladi bu o'rinda ona mehri va farzand eng oliy ne'mat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asalning ich etini kemirayotgan tuyg'u qachonlardir ishongan va inongan tuyg'ulari soxta ekanligi ota-onasining yuzini yerga qaratib ketganligidan vijdoni qiynaladi.

Alibek Jonturin va Ilyos o'rtasidagi do'stlik rishtalari Ilyos sevgan qizi Asal bilan uyiga borib boshpana so'raganda yanada mustahkamlanadi. Do'stlik kulfatda sinaladi, deyдилar. Menimcha, ular baxtli damlarda ham sinaladi. Do'stiga chin dildan yordam bergan Jonturin keyinchalik do'stining qilgan xatolaridan xafa bo'ladi.



Ilyosning yaqin do'stlaridan O'rmat aka ham uzoqdan uzoq duo qiladi . Asarda urf -odatlarimiz ham chiroyli tasvirlangan kelin salomlar, kelinga ko'rmana berish, boshiga ro'mol o'rash kabi marosimlar o'rinli tasvirlangan.

Asalni boshqaga unashtirmoqchi bo'lsa ham u bilan baxtli bo'la olmasligi, Ilyosni yoqtirib qolishi hatto hech kimni xabardor qilmasdan u bilan oila qurishga rozi bo'lishi va albatta vaqti kelib ota-onasiga tushintirishiga ishongan Asal uyiga Ilyos bilan emas o'g'li Samandar bilan kelishga majbur bo'ladi.

Boytemir shunday deydi: Hayot qanchalik murakkab .Agar Asal ketish xayolida bo'lsa mayli .Faqat ketayotganini bir og'iz aytsa bo'lgani, o'g'li bilan songgi bor xayr- xo'shlashib , oq yo'l tilab qolaman.Axir Samad men uchun o'z o'g'limday bo'lib qolgan -ku. Biroq o'z otasida zo'rlab tortib ololmayman deb mard yigitni yo'lini tutadi. Hayotda shunday insonlar ham borki o'z farzandi bo'lmasa ham farzandidan ziyod ko'rib uni ardoqlaydi . Biz Boytemirda timsiolida shu xislatlarni ko'rishimiz mumkin.

Tog' bilan tog' uchrashmaydi, lekin odam bilan odam uchrashadi degan naql bekorga emas .Samadning yoshligi ilk qadam tashlashlari o'z otasi oldida Boytemirni ota deyishi har bir kitobxonning yurak bag'rini ezishi tabiiy. Asalning esa matonat bilan qo'shnisidan Ilyos uchun yot olib kelib berishida insoniylik tushunchalari mujassamlashgan.

Vaqt hamma narsaga davo deganlaridek, Ilyos Asalni Boytemirning uyida ko'rishi, bir lahzada yuragini muzga aylantirdi. Oilada ishonch va sadoqat har qanday qiyinchilikni yengishga asos bo'la oladi. Yozuvchi bu asar bilan muxabbat va vafo o'rtasidagi tushunchalarni hayotiy voqealar asosida tasvirlab bergan. Guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi bugungi jamiyatimizda ham kichik muammolar sababli oilalarda nizolar bo'lib turgani achinarli holdir. O'z farzandi yonida tursa ham uning iliq taftini bag'riga bosa olmaydigan Ilyosdek insonlar ham uchrab turadi. Asaldagi ayol matonati,qadr qimmat, farzandining kelajagi uchun barcha qiyinchiliklarga sabr bilan toqat qilishi hayotiy misollar bilan tasvirlangan. Yozuvchi olloh tomonidan berilgan har bir mashaqqatli sinovlarga sabr qilishni o'rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madrim Hamroyev,Sharofjon Sariyev “Adabiyot fanidan ma'lumotnoma” Yangi kitob Toshkent 2019.
2. Chingiz Aytmatov “Sarvqomat dilbarim” asari.
3. Sharafjon Sariyev “ Adabiyot mukammal qo'llanma” Toshkent “Regbooks” nashriyoti 2020.